

4. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
5. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. Khursanov, B. J. (2023). Factors of Preparation of HighQuality Clinker in Rotary Kilns. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 73-77.
7. Xursanov B. J., & Mirzaev, D. B. (2023). TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR MUTAXASISLIGI TA'LIM JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 3), 565-567.
8. Khursanov, B. J. (2023). AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DESIGN OF TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL PROCESSES OF AGRICULTURAL PRODUCTS PRODUCTION AND INCREASING THE TECHNICAL LEVEL. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(2), 93-100.
9. Tojimatovich, K. I., & Jurakuziyevich, K. B. (2023). HYDRODYNAMICS OF FLUID TRANSMISSION CAPACITY OF BUBBLE EXTRACTOR FILTER. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(2), 80-85.
10. Xursanov, B. J., & Mirzaev, D. B. (2023). Texnologik mashinalar va jihozlar mutaxasisligi ta'lim jarayonlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. *Science and innovation*, 2(Special Issue 3), 565-567.
11. Khursanov, B. J. (2023). Improvement of Educational Processes in Specialized Subjects Based on Digital Technologies. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 18-23.
12. Б.Дж. Хурсанов. (2023). Методы анализа технологических систем переработки энергии. *Евразийский исследовательский вестник*, 21, 87-92.

OLIY TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNI KENG QO'LLASH ORQALI XORIJIY O'QUV DASTURLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Umirova Navruza Mamasoliyevna

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

navruzaumirova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy pedtexnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish va qo'llash usullarini pedagogik jihatdan ochib beradi, hamda ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida qilinishi lozim bo'lgan masalalarni pedagogik yoritib beradi.

Kalit so'zlar: xorijiy o'quv dasturlar, pedtexnologiyalar, zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsilar, oliy ta'lim tizimi, talabalar mustaqil dunyoqarash.

Bugungi global hayotda biz biron bir narsani shunday yoki shunchaki qila olmaymiz chunki bizda har bir sohada zamonaviy texnologiya bizni ishimizni, muammolarimizni va tashvishlarimizni zamonaviy texnologiyalar oson va yengil biz kutganimizdan ham a'lo darajada bajarib bermoqda. U xoh ijtimoiy sohada bo'lsin xoh ta'lim jarayonida farqi y'oq zamonaviylik va texnikaviylik qamrab olgan. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashimiz ,ta'lim berishimiz va talabalar mustaqil dunyoqarashini shakllanishiga turtki bo'lishimiz bugungi davr talabi. Bugungi kun zamonaviy va eng oxirgi texnologiyalardan foydalanib ta'limni tashkil etishimiz yoshlar kutgan va texnologiyalashtirilgan davr talabiga javob berish va tayyor turish demakdir. Zamonaviylashish va yangi texnologiyalar orqali bilim berish talabalar fikrlashini zamonaviy talablarda tayyorlashni taqozo qiladi. Bu yangiliklarni juda ham ko'p ijobiy tomonlari mavjud. Shu jumladan, zamonaviylashish, rivojlangan davlatlar talabi darajasida kadrlar tayyorlash, yangi innovasiyalarni xorijdan olib kelish emas, balki o'zimizda ishlab chiqish, va yaratish demakdir, jahon talabi darajasida ta'lim berish, talabalar almashunuvida hech qanday farqlarsiz amalga oshirish kabi dolzarbliklarni yechimi topiladi. Ya'ni eski o'qitish tizimlari bosqichma-bosqich yangilanib, zamonaviylashib boradi. Ta'limiy almashinuvlar bevosita amalga oshirilaveradi. Bu axborot almashishda, so'nggi yangiliklardan barcha birdek ta'minlanishi demakdir. Insoniyat yaralibdiki yangilikka intilib yashash sharoiti va mehnat samaradorligiga erishish imkoniyatlarini izlagan va yaratgan. Bu davrlar osha kashfiyotlarni yangi g'oyalarni tug'ilishiga olib kelgan. Shuning asnosida davrlarda yashash va ishlash yengillashib borgan.

Ta'lim jarayonida xorijiy davlat dasturlarini bevosita va yordamchi dastur sifatida qo'llash ta'limda zamonaviy innovasiyalarni tadbiq qilish o'qitishda yangicha uslubda yondashish demakdir. Bu o'z navbatida talabalarda yangicha o'qish, izlanish, fikrlash va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Bu tibbiyotda, ta'limda ijtimoiy hayotda, davlat boshqaruvida amalda bo'lishi insonlarni ham turli javhalarda zamonaviylashishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar o'z navbatida milliy mafkuramizga, dunyoqarashimizga va urf-odatlarimizga uyg'un bo'lishi va bir-birini inkor qilmasligi kerak. Shu asnoda yoshlarni yangicha hayotga undashi milliyligimizni yo'qotmasligi, urf-odatlarimizni unutmasligi kerak. Yangicha hayotni texnologiyalarni milliylik bilan uyg'unlashtirish lozim. Milliyligimiz zamonlar osha ajdodlarimiz yashash sharoitidan kelib chiqib vujudga kelgan. Zamonaviy innovasiyalar oliy ta'limda barcha sohalarga nisbattan birinchilardan qo'llashi va foydalanishi lozim chunki boshqa barcha sohalardagi rivojlanishlarni ta'minlab beradi, ya'ni mutaxassislar o'quv jarayonidan keyin turli sohalarda ish faoliyatini davom ettirib zamonaviy texnologiyalarni olib kirishga sababchi bo'ladi. Ishda va ta'limda zamonaviy o'qitish va ishlash metodlarini tadbiq qiladi va kelajak avladga va insonlarga yetkazadi. Bularning barchasi insoniyat yaxshi yashash, hayotida yangilaiklar bo'lishi bilan qiziqarli va mazmunli hayot kechirishi, hamda ma'naviyatimizni o'sishiga sabab bo'lishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, qaysi biri eng muhim afzalliklari ekanligini aniq tasvirlab bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalar va metodlarni ta'limda qo'llashimiz va bunga zamin yaratishimiz ta'lim samaradorligini oshishi, ta'lim oluvchilarni qiziqishlarini oshishiga erishish asosiy maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2003.
2. Jumaniyozova M. Innovasion faoliyat tushunchasi va malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlash.// Xalq ta'limi, 2004, 6 son.
3. Jo'raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv –metodik qo'llanma.-T.: Fan, 2005.
4. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. //. Xalq ta'limi. 1997.

MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI VA UNING AHAMIYATI

**Sharipova Sadoqat Fazliddinovna,
Abdunazarov Rabimkul**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan ta'lim maqsadlarida foydalanish imkoniyatlariga bag'ishlangan. O'quvchilarga matematika o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ijobiy tomonlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: matematika, o'rganish, ta'lim, talaba, o'qituvchi, zamonaviy texnologiya, interfaol ta'lim.

Ma'lumki, zamonaviy elektron qurilmalar inson hayotining bir qismiga aylandi. Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish ta'sir qilmaydigan faoliyat sohasini tasavvur qilish qiyin. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'rganish ilmiy fantastika kabi g'ayrioddiy narsa emas. Elektron doskalar, proyektorlar, kompyuterlar va noutbuklar kabi texnologik yutuqlar zamonaviy maktablarning kundalik hayotida mustahkam o'rin oldi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari nafaqat o'qituvchi va o'quvchilarni bo'lajak darsga tayyorlashda, balki bevosita dars jarayonida ham qo'llanilmoqda.

Fan va texnika taraqqiyoti, axborotlashtirishning kuchayishi zamonaviy insonga harakatchanlik, faollik, vaqt va kuchni "tejash" va zamon bilan hamnafas yashash kabi hayot sharoitlarini taqozo etmoqda [3]. Hozirgi zamonda zamonaviy inson uchun shunchaki biror narsani bilishning o'zi yetarli emas; trendda bo'lish uchun u doimiy ravishda o'rganish, takomillashtirish, kerakli ma'lumotlarni qidirish va topa olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda ko'plab bolalar boshlang'ich maktab bosqichida elektron qurilmalardan foydalanishni yaxshi bilishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirda aksariyat gadjetlardan foydalanib bo'lmaydi, faqat o'yin-kulgi uchun yoki muayyan funksional operatsiyalarni bajarish uchun (masalan, mobil telefon qo'ng'iroqlari va boshqalar), balki mashg'ulotlar uchun ham.